

TO‘QIMACHILIK VA CHARM SANOATI AHOLI BANDLIGI VA EKSPORTDA KATTA ULUSHGA EGA TARMOQ

Prezident Shavkat Mirziyoyev 12-dekabr kuni to‘qimachilik va charm sanoatidagi islohotlar natijadorligini yanada oshirish chora-tadbirlari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.

Bu tarmoqlar aholi bandligi va eksportda katta o‘ringa ega. Xususan, ularga tegishli korxonalarda 430 ming fuqaro ish bilan ta‘minlangan. Yengil sanoatning jami ishlab chiqarishdagi ulushi 14 foizni, eksportda 16 foizni tashkil qiladi.

Lekin bugungi murakkab sharoitda tashqi bozordagi vaziyat tez o‘zgaryapti. Buning ta‘sirida eksport narxлари ip-kalavada 9 foizga, gazlamada 15 foizga, tayyor mahsulotda 13 foizga tushgan. Asosiy eksport bozorlarimizda tayyor mahsulot olish kamaygan.

Yig‘ilishda bu vaziyatga moslashib ishlash, ichki imkoniyatlarni to‘liq safarbar etish choralari muhokama qilindi.

Yanvar-noyabr oylarida to‘qimachilik eksporti 2,6 milliard dollarni tashkil qildi. Sohadagi imkoniyatlar hisobiga buni oshirish mumkinligi ta‘kidlandi.

Jahon bozorida tola narxi pasayib borayotgan sharoitda tola va ip-kalavani chuqur qayta ishlashni ko‘paytirish zarurligi qayd etildi. Buning uchun mato ishlab chiqarish va bo‘yash korxonalarini qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash choralari belgilandi. Soha mas‘ullari oldiga ip-kalavani qayta ishlash darajasini 70 foizga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

Shu bilan birga, bu yil qo‘y va echki terisi eksportidan 10 foizlik yig‘im bekor

qilingani natijasida 3 million dollarlik eksport shartnomalari tuzilgan. Ushbu tajribani kelasi yil ham davom ettirib, eksportni oshirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Charm sanoati korxonalarini xomashyo bilan uzluksiz ta‘minlash choralari va kelgusidagi rejalar bo‘yicha mas‘ullarning hisoboti eshitildi.

Charm sanoatida bichuvchi, tikuvchi, kosib kabi o‘rta bo‘g‘in kadrlari yetishmayotgani, bu yo‘nalishda yiliga bor-yo‘g‘i 167 nafar mutaxassis tayyorlanayotgani ko‘rsatib o‘tildi. Shu bois, poyabzal ishlab chiqarish rivojlangan Andijon, Namangan, Farg‘ona, Samarqand va Toshkent viloyatlaridagi yetakchi korxonalarni texnikumlarga bog‘lab, “dual ta‘lim”ni yo‘lga qo‘yish zarurligi aytiladi.

Yig‘ilishda kelgusi yilga mo‘ljallangan rejalار haqida ham axborot berildi.

Qayd etilganidek, yengil sanoat tarmog‘iga 2 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiya jalb qilib, 82 ta yirik loyihani amalga oshirish hamda 25 mingta ish o‘rni yaratish ko‘zda tutilgan. To‘qimachilik mahsulotlari eksportini 4 milliard dollarga, charm mahsulotlari eksportini 250 million dollarga olib chiqish maqsad qilingan.

YANGI UY-JOYLAR QURILISHI EHTIYOJMAND AHOLI MANFAATLARIGA XIZMAT QILSIN

Prezident Shavkat Mirziyoyev uy-joy qurilishida aholi mablag‘larini kafolatlash tizimiga oid taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimiz aholisi 37 milliondan oshdi. Shu yilning o‘zida 215 mingta oila paydo bo‘ldi. Albatta, bularning barchasi uy-joyga talabni ko‘paytiradi.

Joriy yilda 100 ming xonadonli ko‘p qavatli uylar foydalanishga topshiriladi. Kelgusi yilda 120 ming xonadonli uylar qurilishi rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, talab ko‘pligidan foydalanib, bu sohada insofsiz biznes qilayotganlar ham bor. To‘lov tizimi tartibga solinmagani, raqamlashtirish va ochiq-oshkoralik yo‘qligi bunga yo‘l ochib beryapti. Yangi uylarni olmoqchi bo‘lgan odamlar pulini bank orqali emas, to‘g‘ridan to‘g‘ri quruvchiga berayotgani uchun bu mablag‘lar “soya”da qolyapti. Ko‘p hollarda uylarni topshirish muddati kechikib, aholi to‘lagan pullar “muzlab” turibdi. Ulushdorlik shartnomalari hech qayerda ro‘yxatga olinmay, faqat quruvchining manfaatiga xizmat qilyapti.

Shu bois, davlatimiz rahbari 23-sentabr kuni qurilish industriyasi bo‘yicha o‘tgan yig‘ilishda uy-joy sotib olishda aholi mablag‘larini kafolatlaydigan tizim yaratish

topshirig‘ini bergan edi. Taqdimotda bu boradagi takliflar ko‘rib chiqildi.

Qayd etilganidek, xorijiy davlatlarda “yescrow” tizimi tajribadan o‘tgan. Unga ko‘ra, buyurtmachi va tijorat banki o‘rtasida tuziladigan shartnomaga asosan, har bir qurilish inshooti bo‘yicha “yescrow” hisobvarag‘i ochiladi. Ko‘chmas mulk uchun kelishilgan mablag‘lar ushbu hisobvaraqa orqali amalga oshiriladi. Unda yig‘iladigan mablag‘lar asosida tijorat banklari buyurtmachi pasaytirilgan foizda kredit taqdim etadi. Qurilish bitgach, xaridorning hisobvarag‘idagi pul developer tashkilotga o‘tkaziladi. Quruvchi o‘z majburiyatini bajarmagan taqdirda, bu pul egasiga qaytarib beriladi. “Yescrow” hisobvarag‘ida turgan mablag‘larga undiruv qaratilmaydi.

Prezidentimiz takliflarni ma‘qullab, bu borada huquqiy asos yaratish, mazkur tizimni qurilishga aloqador vazirlik va idoralarda integratsiya qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Munosabat



YAXSHI QONUN XALQQA HURMAT IFODASIDIR

Jahon siyosati tarixida qonunlar xalqning vijdonini ifodalashi kerakligi haqida ko‘p hikmatli fikrlar aytilgan. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning saylovdan keyingi birinchi majlislarida milliy parlamentimizning qonun ijodkorligini kuchaytirish bo‘yicha bildirilgan taklif-tashabbuslar shunday hikmatlarga monand bo‘ldi.

Mohiyatiga ko‘ra, Oliy Majlis va xalqimizga davlatimiz rahbarining navbatdagi murojaatnomasi sifatida qabul qilingan chiqishlarda qonun ijodkorligi borasida milliy tajriba hamda dunyodagi ilg‘or tendensiyalarga alohida e‘tibor qaratiladi. Umuman,

Prezidentimizning takliflari parlamentimiz faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini ifodalab bermoqda.

Davomi 2-betda



BU YURTDA HECH KIM E‘TIBORSIZ QOLMAYDI

Azamat o‘rta maktabni bitirgach, o‘zi orzu qilganidek, oliygohga o‘qishga kirmoqchi edi. Afsuski, shunchaki umid bilan ish bitmas ekan. U chekka qishloqda tug‘ilib o‘sgan. Oilaviy sharoiti uning o‘qishiga imkon bermasdi. Yigit taqdirga tan berganicha qolaverdi.

Bekorchiilikdan yomoni yo‘q. Oliyogha o‘qishga kirmagach, kunni behuda o‘tkazadigan bo‘lib qoldi. Biror joyda ishlash desam, qishloqda korxona yoki muassasaning o‘zi yo‘q. Izlanib, harakat qilgan bilan tayinli narsaga erishib bo‘lmaydi. Har bir ishning boshini tutish uchun mablag‘ zarur. O‘zicha kredit olish istagida tumandagi banklarga murojaat qilib ko‘rdi. “Ertaga keling”, “Indin

keling”, “Falon hujjat kerak, ma‘lumotnoma kerak” bilan ovora qilishgani qoldi, xolos. Shu orada o‘rtoqlaridan biri chetga ishga ketayotganini aytib qoldi. Buni eshitgan Azamat ham unga hamrohlik qiladigan bo‘ldi. Ota-onasidan ruxsat so‘rab, yo‘lga tushdi.

Davomi 4-betda

Prezident tashrifidan so‘ng



Hakim YO‘LDOSHEV olgan suratlar.



“XUSHNUD”NING BUGUNIDAN ROZI, ERTASIDAN MAMNUN ODAMLARI MAHALLA OBODLIGIGA HISSA QO‘SHMOQDA

“Odamzodning qo‘li gul. Sharoit va ishtiyoq bo‘lsa, uddalab bo‘lmaydigan yumushning o‘zi yo‘q”. Yoshligimizda biror vazifa qarshisida kalovlanib, xuddi uni bajarish imkoni yo‘qdek tuyulgan paytlarda momom shu gapni ko‘p takrorlardir.

Yangihayot tumaniga kirib borar ekanmiz, xayolimga birinchi kelgan fikr shu bo‘ldi: momom ming karra haq. Nega haq bo‘lmasin?! Axir shu yerlarda ishlab va yashayotgan meni ham bu yerdagi o‘zgarishlar, yangilanishlar hayratga solyapti-ku!

To‘g‘ri, bu tomonlarga oxirgi marta, adashmasam, bundan 6 yil oldin kelgandim. Bu joylarning o‘sha paytdagi manzarasini yaxshi xotirlayman: yo‘li o‘nqir-cho‘nqir, suv, gaz, elektr ta‘minoti abgor, shahar bo‘lib shahar, qishloq bo‘lib qishloqqa o‘xshamas bir joylar

edi. Bugun-chi? Birgina “Xushnud” mahalla fuqarolar yig‘ini hududini aylanib, olgan taassurotim shu bo‘ldi: bugun Yangihayotda o‘z nomiga mos yangi hayot jo‘sh urmoqda.

“Xushnud”da xushhol bo‘lasiz

Prezidentimiz o‘tgan oyda poytaxtimizning Yangihayot tumaniga tashrifi asnosida

Xushnud mahallasida bo‘lib, aholi hayoti, hududdagi o‘zgarishlar bilan tanishgan edi. Davlatimiz rahbari bilan uchrashuvda mahalla faollari va nuroniylar keyingi yillarda Yangihayot tumani jadal o‘zgargani, yangi transport yo‘llari va korxonalar qurilib, hayot tubdan o‘zgarganidan mamnunligini aytib, ezgu tilaklarini izhor etdi.

Davomi 3-betda

Ta‘lim odimlari

“TO‘SIQSIZ MUHIT” YOXUD BARCHA UCHUN TENG IMKONIYAT

Alohida e‘tibor va g‘amxo‘rlik talab etadigan bola bilan gaplashsangiz, ko‘nglingiz ozurda bo‘lishi shubhasiz. Taqdir sinovi uni chetlab o‘tmagani, imkoniyati tengqurlari bilan barobar emasligidan og‘rinasiz. Hayotning ana shu sinovlari qarshisida mardona turgan bu murg‘ak qalb anchayin sabr-bardoshli, matonatli, ruhan dadil, bilim va hunar egallashga istagi kuchli ekanini hayratingizni oshiradi. Shunda ichki olamning – qalb va ruhning salomatligiga gap ko‘pligini anglaysiz.

Davomi 5-betda

Munosabat

YAXSHI QONUN XALQQA
HURMAT IFODASIDIR

Firdavs SHARIPOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

Boshlanishi 1-betda

Bunda parlamentimiz faoliyatidagi yutuqlar bilan birga e'tibordan chetda qolgan masalalar, foydalanilmagan imkoniyatlar, avvalo, qonun loyihalari sifati bo'yicha e'tirozlar borligi, to'g'ridan to'g'ri ishlaydigan va aniq ijro mexanizmlariga ega qonunlar ulushi kamligicha qolayotgani ko'rsatib o'tildi.

Albatta, biz — xalq vakillari qonun loyihalarining ilmiy asoslanganiga chuqur e'tibor qaratishimiz lozim. Buning uchun Parlament tadqiqotlari instituti hamda mamlakatimizdagi ilmiy institutlar, "aql markazlari" bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, ularning imkoniyatidan to'liqligicha foydalanish lozim bo'ladi.

Hayotga, odamlarga yaqin

Qonun ijodkorligi jarayoni, avvalo, jamiyatimizdagi dolzarb muammolar yechimi, xalqimizning bugun qanchalik dolzarb ekanligi kerakligi ta'kidlandi.

Jumladan, eskirgan uylar o'rinda zamonaviy ko'p qavatli uy-joylar qurish uchun "Renovatsiya to'g'risida"gi hamda fuqarolarning uy-joy qurilishiga jalb etilgan mablag'larini kafolatli himoya qilishga qaratilgan qonunni qabul qilish taklif qilindi.



Saylovoldi uchrashuvlarda, muloqotlar va murojaatlarni o'rganish jarayonlarida ayni shu masalalar bugun qanchalik dolzarb ekaniga bevosita guvoh bo'ldik. Respublikamizning barcha hududlarida, tuman-shaharlarda yangi uy-joylar qurilyapti, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yangi va yosh oilalar ularni yaxshi niyatlar bilan xarid qilyapti. Lekin huquqiy asoslarning to'liq emasligi ayrim holatlarda jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Oqibatda oilalar jabr ko'ryapti. Davlatimiz rahbari ayni shu masalani hal qilish bo'yicha taklif bergani xalqimiz tomonidan ham faol qo'llab-quvvatlanmoqda.

Hozir raqamlashtirish hayotiy faoliyatimizning asosiy jihatlaridan biriga aylanib ulgirdi. Sun'iy intellekt hayotimizga kirib kelmoqda. Uning asosiy maqsadi insonning qobiliyati va imkoniyatlari chegaralarini kengaytirish bo'lib, qamrovi kundan kun kengaymoqda. Demak, bu masala ham parlament e'tibor markaziga chiqishi, ya'ni sun'iy intellektni qo'llash orqali yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslarini yaratish muhim.

Qonun ijodkorligini kuchaytirishimiz zarur bo'lgan soha va munosabatlar ko'p. Masalan, majburiy tibbiy sug'urta tizimini qonun bilan mustahkamlash, franchayzing, kapital bozori, startaplar sohasidagi munosabatlarning qonuniy asoslarini yaratish oldimizda turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Biz nafaqat muammolarni hal etish, balki zamonaviy sohalarida imkoniyatlarni kengaytirish uchun ham qonunchilikni takomillashtirishimiz zarur.

Tashqi va ichki muloqot

O'zbekistonning ochiq va pragmatik tashqi siyosatini izchil amalga oshirish hamda belgilangan strategik rejalarning jadral ijrosini ta'minlash,



davlatimizning xalqaro imiji va nufuzini yanada mustahkamlash eng muhim masalalardan biri. Shu nuqtayi nazardan, Tashqi siyosat konsepsiyasini yangi tahrirda qabul qilishni bugun davrning o'zi taqozo etmoqda.

Mamlakatlarning bir-biriga munosabati, xalqaro tashkilotlarning ahamiyati keyingi yillarda ancha o'zgarmoqda. O'zbekiston dunyoga ochilib, faol va tashabbuskor siyosat yuritayotgan davrda Tashqi siyosat konsepsiyamiz jahondagi chaqiriqlarga tayyor bo'lishi muhim.

Ushbu hujjatning yangi tahrirda qabul qilinishi yurtimizni har tomonlama rivojlantirish

va boshqaruvi organlari bilan hamkorligini kuchaytirish bo'yicha yangi tizim yaratildi. Ushbu sohani tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish borasida izchil ishtirok etmoqda.

Jumladan, ilk bor yaqin va o'rta muddatga qaratilgan istiqbollarni belgilab olish maqsadida 2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlanib, nodavlat notijorat tashkilotlarning huquqiy kafolatlarini ta'minlaydigan, zamonaviy demokratik talablar va xalqaro standartlarga javob beradigan normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish vazifalari belgilab olindi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mazkur institutga alohida bob ajratilib, konstitutsiyaviy maqom berildi. Qolaversa, fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Davlat va jamiyat hayotida fuqarolik jamiyati institutlari faolligini yanada oshirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy sohalarini rivojlantirishda ularning salohiyatidan to'laonli foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shularga muvofiq, keyingi yillarda Qonunchilik palatasi faoliyatida jamoatchilik ishtiroki yanada kuchaymoqda. Davlatimiz rahbari taklifi asosida Qonunchilik palatasiidagi har bir qo'mita huzurida fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat jamoatchilik kengashlari tuzilishini parlamentimiz tarixidagi yangi sahifa deb tushunaman. Buning bir qancha jihatlari mavjud.

Birinchidan, qonun ijodkorligi jarayonida fuqarolik jamiyati institutlari ishtiroki kengayadi, jamoatchilik uchun yanada keng yo'l ochiladi.

Ikkinchidan, quyi palata bilan ijtimoiy sheriklik yanada mustahkamlanadi.

Uchinchidan, nodavlat notijorat tashkilotlarning huquq va manfaatlari qonun hujjatlarida ifoda etilishi kuchayadi.

Eng muhimi, bular fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va jamiyat boshqaruvida bevosita ishtirok etishi uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Bularning barchasi ham tashqi muloqot, ham mamlakatimizdagi ichki muloqot jarayonlarida parlamentimizning asosiy demokratik maydon vazifasini bajarishiga xizmat qiladi.

Yangilangan Konstitutsiyamizda 100 mingdan kam bo'lmagan fuqaro o'z takliflarini quyi palataga kiritish huquqiga ega ekanini kafolatlandi. Endi quyi palatada bu borada yangi tizim yaratiladigan bo'ldi. Fuqarolarning tashabbuslarini faol qo'llab-quvvatlash maqsadida Qonunchilik palatasi huzurida Jamoaviy tashabbuslar bo'yicha parlament komissiyasi tashkil etiladi.

Qonunlar ijrosini doimiy baholab borish bo'yicha yangi tizim yo'lga qo'yildi. Asosiy maqsad — qabul qilingan qonun amaliyotda ishlashi, odamlar hayotida sezilishi lozim. Bundan buyon qonunlar ijrosi Oliy Majlis palatalarining tegishli qo'mitasi va mas'ul ijoy etuvchi organ bilan birgalikda o'rganib boriladi. Buning uchun hukumat bilan Qonunchilik palatasi o'rtasida yanada samarali hamkorlik olib borilishi muhim ahamiyatga ega.

Zero, bularning barchasi pirovardida davrning o'tkir talablariga javob beradigan, sifatli, amaliyotda samarali ishlaydigan qonunlar qabul qilinishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.



Dolzarb mavzu

PIROTEXNIKA
VOSITALARIDAN
FOYDALANISHJAMIYATGA O'TKAZILAYOTGAN ZULM, O'Z MABLAG'INI
ISROF QILISHDAN BOSHQA NARSA EMAS

Hayotimizda o'chmas iz qoldirayotgan 2024-yil ham yakunlanib bormoqda. Poyoniga yetayotgan yil butun mamlakatimiz, barcha soha va tarmoqlar uchun xayrli keldi. O'zaro totuvlik, birdamlik va hamjihatlikda oldimizga qo'yilgan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, burchimizni ado etishda muayyan natijalarga erishdik. Xalqimizni rozi qilishga qaratilgan ko'plab ezgu ishlar bajarildi.

Qutbiddin BURHONOV,
Oliy Majlis Senatining
Mudofaa va xavfsizlik
masalalari qo'mitasi raisi



baravarigacha (11 million 250 ming so'm) miqdorda jarima solishga;

uchinchi qismida esa piroteknika buyumlarini o'tkazganlik va mamlakat hududiga olib kirganlik huquqbuzarlik ayyolarini musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan (9 million 375 ming so'm) ellik baravarigacha (18 million 750 ming so'm) miqdorda jarima solishga sabab bo'lishi aniq belgilab qo'yildi.

Ushbu kodeksga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilguncha esa mazkur modda bir qismdan iborat bo'lgan. Ushbu huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun piroteknika vositalari musodara qilinib,

“**BOJXONA ORGANLARI TOMONIDAN MAZKUR YO'NALISHDA 2024-YILNING O'TGAN DAVRIDA 92 TA QONUNBUZILISH HOLATI ANIQLANIB, 1,1 MILLIARD SO'MLIK (4,3 MILLION DONA) PIROTEXNIKANING NOQONUNYI AYLANMASIGA CHEK QO'YILGAN. MAZKUR HOLATLAR BO'YICHA 7 TA JINOYAT ISHI QO'ZG'ATILGAN BO'LSA, 62 TA HOLATDA MA'MURIY ISH OCHILGAN.**

mentalitetiga ham, amaldagi qonunchilikka ham mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Zero, mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi, jumladan, piroteknika buyumlarini savdosining oldini olish bo'yicha tadbirlar samaradorligini oshirishga qaratilgan tizimli ishlar bajarilmoqda.

Fuqarolarning hayoti va sog'lig'i, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini muhofaza qilish bo'yicha sa'y-harakatlarni kuchaytirish, shuningdek, huquqiy ta'sir choralarini qo'llash chog'ida mutanosiblikning konstitutsiyaviy prinsipi rivoj etilishini ta'minlash maqsadida piroteknika buyumlarining qonunga xilof muomalasi bilan bog'liq ma'muriy javobgarlik choralari kuchaytirildi.

Mamlakatimiz hududiga piroteknika vositalarining noqonuniy kirib kelishi, asosan, noyabr-dekabr oylarida, ya'ni Yangi yil bayrami arafasida keskin ortishi hamamizga ma'lum. Jumladan, 2021-2024-yillarda yurtimizga qiymati qariyb 3,1 milliard so'mlik 5 millionga yaqin piroteknika buyumini noqonuniy olib kirish



Jumladan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning piroteknika buyumlarining qonunga xilof muomalasi, deb nomlanuvchi 1851-moddasi qismlarga ajratilib, har bir qilmish uchun alohida sanksiyalar belgilandi.

Mazkur moddaning birinchi qismida piroteknika buyumlaridan qonunga xilof ravishda foydalanilganlik huquqbuzarlik ayyolarini musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan (1 million 875 ming so'm) yigirma baravarigacha (7 million 500 ming so'm) miqdorda jarima solishga;

ikkinchi qismida ularni noqonuniy ishlab chiqarganlik, tayyorlaganlik, saqlaganlik, tashiganlik, jo'natganlik, olib chiqqanlik huquqbuzarlik ayyolarini musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravaridan (5 million 625 ming so'm) o'tiz

BHMning besh baravaridan (1 million 875 ming so'm) yigirma baravarigacha (7 million 500 ming so'm) miqdorda jarima solingan.

Piroteknika buyumlarining noqonuniy muomalasi bilan bog'liq yuqoridagi harakatlar ancha miqdorda yoxud shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, aybdor jinoiy kodeksining 2501-moddasiga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Mamlakatimiz hududiga piroteknika vositalarining noqonuniy kirib kelishi, asosan, noyabr-dekabr oylarida, ya'ni Yangi yil bayrami arafasida keskin ortishi hamamizga ma'lum. Jumladan, 2021-2024-yillarda yurtimizga qiymati qariyb 3,1 milliard so'mlik 5 millionga yaqin piroteknika buyumini noqonuniy olib kirish

kodeksining tegishli moddasiga asosan jinoiyat ishi qo'zg'atilgan. To'plangan 29 ta hujjat chora ko'rish uchun voyaga yetmaganlar komissiyalariga yuborilgan hamda shu kabi huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida mas'ul idoralarga 221 ta taqdimnoma kiritilgan. Bundan tashqari, restoran, kafe-bar, to'yxona, bozor va boshqa idoralar rahbarlaridan piroteknika buyumlaridan foydalanmaslik yuzasidan tilxat olingan.

Musodara qilingan piroteknika buyumlari qayerda saqlanishi va qay tartibda yo'q qilinishi keng jamoatchilikka ma'lum bo'lmaganini tufayli joriy yil 22-noyabrda Toshkent shahri Bektimir tumanidagi favqulodda vaziyatlar bo'limiga tegishli hududda Bojxona qo'mitasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya va Ichki ishlar vazirligi hamkorligida keng miqyosdagi yo'q qilish tadbiri o'tkazilgan.

Tadbirda bir nechta holat bo'yicha olingan 4 milliondan ortiq piroteknika vositasi suvga bo'k'tirish yo'li bilan maxsus texnikalar yordamida yaroqsiz holatga keltirilib, ko'mib yuborilgan. Bugun ham bu boradagi tadbirlar davom ettirilmoqda.

Piroteknika vositalaridan foydalanish va hayot uchun xavfli jihatlari xususida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali ko'plab chiqishlar qilinayotganiga qaramay, asosiy xaridori bo'lgan o'yinchoq bolalaru o'smirlar, hatto yoshi kattalar ham bu turdagi vositalardan foydalanmoqda. Oqibatda voyaga yetmagan bolalarda yuz, ko'z, qo'l qismida og'ir kuyish, ko'z shikastlanishi va qisman yoki butunlay ko'rolmay qolish, eng achinarlisi, hayotdan erta ko'z yumish bilan bog'liq noxush holatlar uchrab turibdi.

Piroteknika vositalaridan foydalanish tinch aholi, qo'ni-qo'shni, beshikdagi qo'daklar, bemorlarga zulmdir. Moddiy jihatdan qaralsa, oila byudjetiga zarar va pulni isrof qilishdan boshqa narsa emas. Shu bois, keng jamoatchilik vakillari, barcha yurtdoshlarimiz farzandlarini, o'quvchilar va voyaga yetmagan bolalarni maktab va bog'chalar, ko'cha-ko'yda yetarlicha nazorat qilishi talab etiladi. El-yurt taqdiriga daxldorlik hech birimizni bir lahzha ham tark etmasligi zarur. Bayram bayramdek o'tishi hamda yaqinlarimizning xavfsizligi, sog'lig'iga barchamiz birdek mas'ulligimizni unutmaylik.

Inson qadriini ko‘zlab amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida xalqimiz tafakkurida qulay va zamonaviy yashash sharoiti haqidagi qarashlar ham o‘zgarmoqda. Endi qulaylik haqida gap borganda faqat shinam va ko‘rkam uy-joylar, hududning ekologik musaffoligidan tashqari yashash va ish joyining yaqinligi ham e‘tiborga olinadigan bo‘ldi.

Prezident tashrifidan so‘ng

“XUSHNUD”NING BUGUNIDAN ROZI, ERTASIDAN MAMNUN ODAMLARI

MAHALLA OBODLIGIGA HISSA QO‘SHMOQDA



Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimizda muhim dasturlar aynan mahallalarda amalga oshirilayotgani, tizimga katta vakolat va imkoniyatlar berilayotgani hududlarni obod qilish, aholi farovonligini oshirishga xizmat qilayotgani qayd etildi.

— Bugun kelishimizdan maqsad qabul qilayotgan qarorlarimiz natijasini, odamlar hayotini ko‘rish. Xuddi bu tumandagiday, har bir hududni rivojlantirish, odamlarga qulayliklarni va ish joylarini ko‘paytirishga harakat qilaymiz. Shu bilan birga, ta‘lim-tarbiyaga, madaniyatga katta e‘tibor qarataymiz. Bilim va ma‘naviyat mustahkam bo‘lsa, iqtisodiyot ham yaxshi rivojlanadi, — dedi Prezidentimiz.

Darhaqiqat, keyingi yillarda shahar va qishloqlarimizni obod qilish, yangi uy-joylar, tibbiyot, ta‘lim, madaniyat, san‘at va sport maskanlarini barpo etish, yo‘l va kommunikatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha muhim chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Bu boradagi ishlarni mahallalarga tushib tashkil etishga qaratilayotgan e‘tibor aholi orasiga chuqur kirib borish, muammolarni tez aniqlash va samarali yechish, xalqimizning roziligini olishda muhim omil bo‘layotir. Mahalla maqomining Konstitutsiya darajasida mustahkamlangani bu ishlarni yangi bosqichga o‘tarishga zamin yaratadi. Ayni paytda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni ko‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasida ushbu xayrli ishlar ko‘lami kengaymoqda.

O‘zbekiston mahallalari uyushmasi ma‘lumotiga ko‘ra, ayni yo‘nalishda joriy yilda ishlar izchil davom ettirilib, mahallalarni ishsizlikdan xoli hududga aylantirishda “mahalla yettligi” bilan banklar o‘rtasida tizimli hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Bandlik dasturlari shakllantirilib, barcha mahallalarga banklardan mas‘ullar birlashtirildi. Mazkur hamkorlik samarasi o‘laroq, 702 mingdan ko‘proq fuqaro bandligi ta‘minlandi. “Bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili asosida 2 million 826 mingta xonadonda qo‘shimcha daromad topish imkoniyati yaratildi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini takomillashtirish va munosib ish sharoiti yaratish ham doimiy e‘tibordir. O‘rgan davrida “mahalla yettligi”ga qulay shart-sharoit yaratish maqsadida barcha mahallalarning moddiy-texnik ta‘minoti xatlovdan o‘tkazildi. 250 ta mahalla fuqarolar yig‘ini uchun yangi bino qurildi, 400 ga yaqini joriy, yuzga yaqini kapital ta‘mirlandi, 50 dan ortig‘i rekonstruksiya qilindi. “Mahalla budjeti” tizimi yo‘lga qo‘yilgani hududlar infratuzilmasini yanada rivojlantirish, aholi farovonligini oshirishda muhim bo‘lmoqda.

Xushnud mahallasida ham ushbu yo‘nalishda keng qamrovli ishlar bajarilayapti. Mahalla 2021-yili tashkil etilgan. Bu yerdagi 48 ta ko‘p qavatli uy hamda 625 ta hovlida 11 mingdan ziyod odam yashaydi. Bolalar bog‘chasi, sport maktabi, oilaviy poliklinika, xususiy klinika, ishlab chiqarish korxonalari, do‘kon va maishiy xizmat ko‘rsatish shoxobchalari bor. Bu yil 49 ta mikroloyiha orqali 116 fuqaro bandligi ta‘minlandi.

— Avval bu yerlar chekka, ko‘rimsiz joylar edi, — deydi “Xushnud” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Orif Aliqulov. — Sal shamol bo‘lsa, chiroq o‘chib qolardi. Yo‘limiz nosoz, suv ta‘minoti, oqova xizmatida doim muammo bo‘lardir. Shu bois, aholining kommunal xizmatlar sifatidan hech ko‘ngli to‘lmadi. 2018-yildan boshlab zamonaviy uylar, bolalar o‘yingohi va sport maydonchalari qurildi. Atrof

obodlashtirildi. Mahallaning uch qavatli binosi ham shu yil bunyod etildi. Uning birinchi qavatida mahalla raisi va xodimlarining xonalari, kutubxona, jadidlar burchagi joylashgan. Yuqori qavatlarda aniq fanlar va xorijiy tillar bo‘yicha o‘quv markazi, fitnes zali faoliyat yuritmoqda. Yerto‘la qismida yoshlarni kasbga yo‘naltiruvchi monomarkaz ochilgan.

Mahalla hududida 150 o‘rinli, zamonaviy sharoitlarga ega xususiy bog‘cha ham barpo etildi. U joriy yil foydalanishga topshirilgan 16 qavatli uyning 1-2-qavatlarida joylashgan. Muassasa xonalarini jihozlashda zamonaviylik va milliylik uyg‘unlashuviga alohida e‘tibor qaratilgan. Mahallada yosh bolali ayollar ko‘p. Ular uchun shu yerga yaqin joylarda tikuvchilik, qandolatchilik bo‘yicha ish o‘rinlari ochilmoqda. Mazkur bog‘cha ular uchun ancha qulay bo‘ldi. Onalar ko‘ngli xotirjam tortib, ish bilan band bo‘ladi, oilasiga qo‘shimcha daromad keltiradi.

— Shu mahallaga ko‘chib kelganimga 50 yildan oshdi, — deydi 76 yoshli Saboxon aya Ortiqova. — Bu joylar ilgari qamishzor, qarovsiz hudud bo‘lib, ayniqsa, yo‘limiz juda nosoz edi. Uydan rezina etikda katta ko‘chagacha chiqib, poyabzalimizni almashtirgan vaqtlarimiz ham bo‘lgan. Shu tufayli mehmon chaqirishgayam tortinardik. Hozirgi o‘zgarishlarni ko‘rib, ba‘zida ko‘zimga ishonmay qolaman. Ko‘p qavatli zamonaviy uylar, turli inshootlar mahallamizga chiroyli baxsh etmoqda. Ko‘chalar ravon, metro yaqin, avtobuslar tinimsiz qatnab

olayotgani to‘g‘risida o‘qish joyidan, kam ta‘minlangan deb e‘tirof etilganlik to‘g‘risida, jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami haqida ma‘lumotnoma olish mumkin. Bu barcha xizmatlarni mahallaga tushirish borasidagi ishlarning o‘ziga xos samarasidir.

TADBIRKORLAR MAHALLASI

Inson qadriini ko‘zlab amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida xalqimiz tafakkurida qulay va zamonaviy yashash sharoiti haqidagi qarashlar ham o‘zgarmoqda. Endi qulaylik haqida gap borganda faqat shinam va ko‘rkam uy-joylar, hududning ekologik musaffoligidan tashqari yashash va ish joyining yaqinligi ham e‘tiborga olinadigan bo‘ldi. Shu ma‘noda, mahallada ko‘p qavatli zamonaviy uylar va boshqa infratuzilma inshootlari qatori 57 ta tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritayotgani ayni muddao.

Masalan, mahallada joylashgan, “Krember” brendi ostida qandolat mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonada 600 dan ziyod ishchi ishlaydi. Qop ishlab chiqaradigan zavodda 180 dan ko‘proq, karton zavodida 70 dan ortiq ishchi bor. Qolaversa, qator tikuv sexlari, xizmat ko‘rsatish va savdo

“O‘zbekiston mahallalari uyushmasi ma‘lumotiga ko‘ra, ayni yo‘nalishda joriy yilda ishlar izchil davom ettirilib, mahallalarni ishsizlikdan xoli hududga aylantirishda “mahalla yettligi” bilan banklar o‘rtasida tizimli hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Bandlik dasturlari shakllantirilib, barcha mahallalarga banklardan mas‘ullar birlashtirildi. Mazkur hamkorlik samarasi o‘laroq, 702 mingdan ko‘proq fuqaro bandligi ta‘minlandi. “Bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili asosida 2 million 826 mingta xonadonda qo‘shimcha daromad topish imkoniyati yaratildi.

berildi. Oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida tadbirkorlik qilish istagidagilarga 162 million so‘m ajratildi. Natijada xizmat ko‘rsatish sohasida ko‘plab yangi ish o‘rinlari ochildi. Kichik biznesni rivojlantirish dasturi doirasida faoliyatini kengaytirish uchun 5 tadbirkorning imtiyozli kredit olishiga ko‘maklashildi. Yangi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish subyektlari hisobiga soliq tushumi ham oshdi.

imkoniyatiga ega bo‘ldi. Xorijdan yana 5 migrant uyiga qaytish niyatida. Hokim yordamchisi ularni ham zamonaviy kasb-hunarga o‘qitish orqali yuqori maosh to‘lanadigan ishlarga jalb etishni rejalashtirmoqda.

Mahalladagi korxonalarda “ustoz-shogird” an‘anasi asosida ish yuritayotgan tadbirkorlar biznesini boshlash niyatidagi yoshlarni qo‘llab-quvvatlayapti. Gulchehra Hotamova shunday yoshlardan. 10-yildan beri tikuv sexida ishchi bo‘lib faoliyat yuritadi. U ishlaydigan sexda erkaklar va bolalar uchun

imkoniyatiga ega bo‘ldi. Xorijdan yana 5 migrant uyiga qaytish niyatida. Hokim yordamchisi ularni ham zamonaviy kasb-hunarga o‘qitish orqali yuqori maosh to‘lanadigan ishlarga jalb etishni rejalashtirmoqda.

Mahalladagi korxonalarda “ustoz-shogird” an‘anasi asosida ish yuritayotgan tadbirkorlar biznesini boshlash niyatidagi yoshlarni qo‘llab-quvvatlayapti. Gulchehra Hotamova shunday yoshlardan. 10-yildan beri tikuv sexida ishchi bo‘lib faoliyat yuritadi. U ishlaydigan sexda erkaklar va bolalar uchun

imkoniyatiga ega bo‘ldi. Xorijdan yana 5 migrant uyiga qaytish niyatida. Hokim yordamchisi ularni ham zamonaviy kasb-hunarga o‘qitish orqali yuqori maosh to‘lanadigan ishlarga jalb etishni rejalashtirmoqda.

Mahalladagi korxonalarda “ustoz-shogird” an‘anasi asosida ish yuritayotgan tadbirkorlar biznesini boshlash niyatidagi yoshlarni qo‘llab-quvvatlayapti. Gulchehra Hotamova shunday yoshlardan. 10-yildan beri tikuv sexida ishchi bo‘lib faoliyat yuritadi. U ishlaydigan sexda erkaklar va bolalar uchun

imkoniyatiga ega bo‘ldi. Xorijdan yana 5 migrant uyiga qaytish niyatida. Hokim yordamchisi ularni ham zamonaviy kasb-hunarga o‘qitish orqali yuqori maosh to‘lanadigan ishlarga jalb etishni rejalashtirmoqda.

Mahalladagi korxonalarda “ustoz-shogird” an‘anasi asosida ish yuritayotgan tadbirkorlar biznesini boshlash niyatidagi yoshlarni qo‘llab-quvvatlayapti. Gulchehra Hotamova shunday yoshlardan. 10-yildan beri tikuv sexida ishchi bo‘lib faoliyat yuritadi. U ishlaydigan sexda erkaklar va bolalar uchun

imkoniyatiga ega bo‘ldi. Xorijdan yana 5 migrant uyiga qaytish niyatida. Hokim yordamchisi ularni ham zamonaviy kasb-hunarga o‘qitish orqali yuqori maosh to‘lanadigan ishlarga jalb etishni rejalashtirmoqda.

IRODANING IBRATLI LOYIHALARI

Xushnud mahallasi markazida faoliyat yuritayotgan yana bir kichik korxona “Mening baxtim” mas‘uliyati cheklangan jamiyatidir. Bu korxonada ishlab chiqarilayotgan yirik hajmli shaxmat donalari iqtisodiyotimizda yangicha yo‘nalish. Hozirgacha bunday turdagi mahsulot xorijdan import qilinardi. U katta-katta sayilgohlar, sport maydonchalari, aholi gavjum joylarga qo‘yishga mo‘ljallangan. Qizig‘i, uni faqat tomosha qilish emas, shaxmat ishqibozlari o‘ynashi ham mumkin.

Har bir shaxmat donasi og‘irligi 4 kilo. Bu mahsulot mahalliy xomashyodan ishlab chiqariladi. Hozir korxonada 8 kishi ish bilan band. Mahsulot talabgorlari esa borgan sari ko‘paymoqda. Korxonada ishlab chiqarilayotgan shaxmat donalari yurtimiz hududidagi sayilgohlar, ta‘lim maskanlarining sport maydonchalarida joylashtirilmoqda. Aholi, ayniqsa, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, sportga oshno etishda foydalanilayapti.

MCHJ rahbari Iroda Ahmedovaning aytishicha, korxona ochilganiga hali ko‘p vaqt bo‘lmagan. Ammo shu qisqa muddatda kichik korxona oyoqqa turib, ishlab chiqarish imkoniyati yaxshilammoqda. Bunda, albatta, “mahalla yettligi” va tuman hokimligining ko‘magi katta bo‘lmoqda.

Korxona ishcilari asosan ayollar. Ular orasida nogironligi bor shaxslar ham ishlayapti. Ish izlab kelaydigan har bir xotin-qizga avval ish uslubini o‘rgatiladi. Jarayon u qadar murakkab emas. Chunki shaxmat donalari, asosan, po‘kak va yelim yordamida yasaladi. Kesish va chamalash ko‘nikmasiga ega har bir odam bu ishini bemalol uddalaydi.

Ana shunday o‘ziga xos ishlab chiqarish sohasini tanlash, o‘zlashtirish va sanoat miqyosida ishini yo‘lga qo‘yish ham oson ish emas. Asli kasbi psixologlik bo‘lgan Iroda bu intilishini ro‘yobga chiqarish uchun ancha izlandi, o‘z ustida ishladi, xorij tajribasini o‘rgandi.

Bu loyihani boshlash jarayonida tadbirkorlikdan ko‘ra masalaning ma‘naviy tomoniga ko‘proq e‘tibor qaratgan edim, — deydi korxona rahbari Iroda Ahmedova. — Hozir axborot texnologiyalari asri. Bu bir jihatdan insoniyatning katta yutug‘i bo‘lsa, ikkinchi tomondan, salbiy oqibatlar ham allaqachon yuzaga chiqq boshladi. Farzandlarimiz telefon, planshet, kompyuterga bog‘lanib qolayotgani buning isboti. Bolalarni bunday muammolardan asrab, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga yo‘naltirishning muhim usullaridan biri — ularni mazmunli, foydali mashg‘ulotlarga jalb etish.

Shaxmat o‘yini shunday vositalardan. Qolaversa, bolalarga kichik yoshidan zamonaviy hunarlarni o‘rgatib borish ham foydadan xoli bo‘lmaydi. Ushbu korxona huzurida faoliyat yuritayotgan o‘quv-uslubiy kurslarda mohir mutaxassislar bolalarga ana shunday bilimlarni ham ulashmoqda. Bu yerda kompyuter grafikasi va rangtasvir, haykaltaroshlik to‘garaklari tashkil etilgan.

Iroda Ahmedova mamlakatimizda madaniy-ma‘rifiy muhitni rivojlantirish bo‘yicha yana ko‘plab loyihalar ustida ishlamoqda. Ulardan biri hozir yurtingizning turli hududlarida keng ommalashayotgan, tun-u kun uzluksiz ishlayotgan ovqatlanish shoxobchalarida sport va kitobxonlikni targ‘ib etish, tanovul qilish asnosida aholining madaniy hordiq chiqarishi uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan.

Nuroniylar uchun shaxmat o‘ynashga mo‘ljallangan loyiha ham diqqatni tortadi. Ixcham va har tomonlama qulay bo‘lgani uchun bu qurilmalarni faqat katta sayilgohlar yoki aholi gavjum joylarda emas, balki mahalla hududidagi maydonchalarda o‘rnatish ham mumkin. Kun-u tun ishlaydigan ovqatlanish shoxobchalari atrofida ham bunday loyihalarni joriy etish imkoniyati mavjud.

Tadbirkorlik muhiti rivojlanayotgan, sanoatlashib borayotgan mahallaning har bir burchida hayot qaynaydi. Kechagina kredit olib ish boshlagan tadbirkor do‘konida savdo qiziydi. Yaqinda ish boshlagan o‘quv markazidan ota-onalar va o‘quvchilarning qadami uzilmaydi. Tikuv, ishlab chiqarish sexlari mashinalar va dastgohlarning tovushi tinmaydi. Bu o‘zgarishlarda yangilanishlar odamlarning hayotiga yangicha mazmun, ishiga unum, hamyoniga daromad, ro‘zg‘origa baraka kiritmoqda.



Hakim YO‘LDOSHEV olgan suratlari.

turibdi. Qishda issiq, yozda salqinligidan transportlar yo‘lovchilar bilan doim to‘la. Zamonaviy maktab va bog‘chalar ham uyimizga yaqin joyda qurildi. Bunday qulayliklar, avvalo, farzandlarimizning yorug‘ istiqbolni uchun katta imkoniyat. Bularni ko‘rib ko‘zimiz quvnaydi, ko‘nglimiz yorishadi, shunday yorug‘ kunlarga yetkazganiga ming bor shukr aytamiz.

Mahalla oqsoqolining aytishicha, hududagi bunyodkorlik ishlari ayni paytda ham davom etmoqda. Xususan, 2025-yilda yana 29 ta ko‘p qavatli uy qurilishi rejalashtirilgan. Bu aholi soni yana bir barobar oshishini anglatadi. Shunga munosib hayot kechirish uchun sharoitlar ham kengaytirilishi lozim. Jumladan, mahalla hududida zamonaviy maktab qurish ko‘zda tutilgan.

Hududdagi hovlilarda yashaydigan aholida quvosh energiyasi asosida ishlaydigan qurilmalar o‘rnatishga qiziqish oshib boryapti. Hozir 15 ta xonadon quvosh batareyasi o‘rnatgan. Ular ehtiyojidan ortgan energiyani davlatga sotib, qo‘shimcha daromad olaypti. Mahalla faollari bu yo‘nalishdagi tajribani o‘rganib, uning afzalliklarini targ‘ib qilayotgani aholi orasida tabiiy resurslarni tejash kayfiyatini kuchaytiraypti.

Mahalla binosida o‘rnatilgan infokiosk davlat xizmatlaridan foydalanishda aholiga yana bir qulaylik bo‘ldi. Bu orqali 55 turdagi davlat xizmatlaridan elektron foydalanish mumkin. Misol uchun, mahallada turib doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyi bo‘yicha, ta‘lim

shoxobchalarida ham odamlar doimiy ish bilan band.

“Xushnud” MFYdagi hokim yordamchisi Jamshid Qodirovning aytishicha, mahallada tadbirkorlik muhitini yanada rivojlantirish maqsadida shu yil 13 fuqaroga subsidiya asosida tikuv mashinasi, noutbuk olib

Ayni paytda mahallada ishsiz yoshlarni bozorda talab yuqori kasb-hunarga o‘qitish va bandligini ta‘minlash borasida ham tizimli ishlar qilinayapti. Yil boshidan buyon 21 fuqaro shunday o‘quv kurslariga jalb etildi. Chet elda migratsiyada yurgan 13 fuqaro xorijdan uyiga qaytdi. Ular chilangarlik, santexniklik bo‘yicha malaka oshirib, yuqori maoshli ish topish



Yil boshidan buyon viloyatda 2 milliard dollarlik investitsiya oʻzlashtirilgan. 565 ming aholi bandligi taʼminlanib, 90 ming odam kambagʻallikdan chiqarilgan.



Boshlanishi 1-betda

Holva degan bilan ogʻiz shirin boʻlmas, olisda hech kim shunchaki pul berib qoʻymas ekan. Boshida bir oz osondek tuyulgandi. Ammo u tomonlarning qahraton qishi jon-jondan oʻti ketarkan. Buning ustiga, hech kim “Sovuq, uyda oʻtir, ishlama”, demadi. Eng yomoni, shuncha mehnat qilganiga yarasha maoshning tayini yoʻq. Ozroq boʻlsa-da, otanasiga pul joʻnatay desa, oʻzidan ortmaydi.

Shuncha mehnatni oʻz tomoqamda qilganimda, hech kimdan kam boʻlmasdim deya koʻp oʻyladi. Kelganiga uch yilga yaqinlashibdik, ishida baraka yoʻq. Qishloqdagilardan Oʻzbekistonda ishsiz fuqarolarga oʻzini oʻzi band qilishi uchun qulayliklar yaratilayotganini eshitgach, balki uyiga qaytsa, biror kasb-hunar bilan mashgʻul boʻlishini oʻylab qoldi.

Xorijda ortiq qololmasligini anglagan shahrisabzlik Azamat Rahimov qishloqqa qaytdi. Koʻp vaqt oʻtmay, uni hokim yordamchisi yoʻqlab kelib qoldi. U bilan uzoq suhbatlashib, qiziqishlarini oʻrgandi. Tomorqasidan foydalanish uchun yordam berishini aytdi. Bu taklif maʼqul kelib, hovlining bir qismida issiqxona qurishni reja qildi. Ammo buning uchun pul zarur. Bu ham muammosiz hal boʻldi. Hokim yordamchisi tavsiyasi bilan bankdan imtiyozli kredit ajratildi.

U dastlab besh sotix joyga issiqxona qurib, qishki mavsumda bodring ekdi. Tajribali dehqonlar maslahati bilan doimiy ravishda agrotexnik tadbirlar koʻrdi.

— Dastlabki yilning oʻzidayoq issiqxonamizdan yaxshigina daromad oldik, — deydi A.Rahimov. — Izlagan imkon topar, deganlaridek, qishloqda turib ham yaxshigina mablagʻ ishlash mumkinligini endi angladim.



Qashqadaryodagi 6 ta yirik korxona bu xayrli ishga hissa qoʻshib, keyingi yil 10 mingdan ziyod fuqaroni kambagʻallikdan chiqarish tashabbusini bildirgan. Bundan tashqari, hududdagi banklar ishtirokida 86 ta drayver loyihani va 33 mingta mikroloyihani ishga tushirib, yana 70 ming insonni daromadli qilish koʻzda tutilgan. Bular orqali viloyatda kambagʻallik darajasi hozirgi 8,6 foizdan 6,5 foizga pasayadi.

Eng muhimi yerdan qanday foydalanishni bilishda ekan. Shundoqqina oldimizda xazina bor ekan-u, qaylarda sarson boʻlib yuribmiz! Oʻtgan behuda vaqtimga achinaman gohida. Uch yil oʻzimcha koʻp pul topaman deb bekorga halak boʻldim. Bugun barchasi yaxshi. Birinchi yildagi foydamizdan yana bitta besh sotixli issiqxona quridik. Qish faslida pishishini moʻljal qilib sabzavot, turli koʻkatlar ekamiz. Ayni

paytda hosil yetilib, bozorga chiqarishni boshlab yubordik. Daromad yomon emas. Bahorning soʻnggi kunlariga qadar savdomiz toʻxtamaydi. Bir mavsumda olayotgan sof daromadim oʻrtacha yuz ellik million soʻmdan oshib qoladi. Bundan tashqari, yana qishlogʻimizdagi ishsiz besh nafar yoshning bandligini taʼminlab, ularga ham oylik berib kelaman. Yashash tarzimiz ancha yaxshilanib, farovon turmush kechirishni

boshlaganimizdan xursandman. Bu yurtida hech kim eʼtiborsiz qolmas ekan. Ona vatanimizdan ayirmasin.

Shahrisabzning Palandara mahallasi hokim yordamchisi tashabbusi bilan Azamat Rahimovning nafaqat bandligi taʼminlandi, balki uning tadbirkor boʻlishiga imkon yaratilib, bir oila kambagʻallikdan chiqib, farovonlik sari qadam tashladi.

Hokim yordamchisi Sanjar Shukurovning taʼkidlashicha, bugungi kunda xorijda ishlab qaytgan koʻp sonli yoshlar bilan alohida muloqot qilib, ularga imkoniyatlar berilishi oʻz natijasini koʻrsatmoqda. Buning evaziga ishsizlik kamayib, tashabbuskor yoshlar soni ortmoqda. Eng muhimi, shu paytgacha boʻsh yotgan tomoqalardan unumli foydalanish joriy etilishi natijasida mahallada kambagʻallik keskin kamayib bormoqda.


“Kambagʻallikdan farovonlik sari” dasturi ijrosi taʼminlanayotgani natijasida nafaqat Palandara mahallasida, balki viloyat miqyosida kambagʻallik qisqarib borayotganini kuzatish mumkin. Xususan, yil boshidan buyon viloyatda 2 milliard dollarlik investitsiya oʻzlashtirilgan. 565 ming aholi bandligi taʼminlanib, 90 ming odam kambagʻallikdan chiqarilgan. Bu amaliy samara kelgusi yilda ham keng miqyosda davom etishi uchun hozirdanoq marra katta olinmoqda. Qator loyihalar ishlab chiqilib, 2025-yil yakuniga qadar yuksak maqsadlar amalga oshishi reja qilingan.

Qashqadaryodagi 6 ta yirik korxona bu xayrli ishga hissa qoʻshib, keyingi yil 10 mingdan ziyod fuqaroni kambagʻallikdan chiqarish tashabbusini bildirgan. Bundan tashqari, hududdagi banklar iştirakida 86 ta drayver loyihani va 33 mingta mikroloyihani ishga tushirib, yana 70 ming insonni daromadli qilish koʻzda tutilgan. Bular orqali viloyatda kambagʻallik darajasi hozirgi 8,6 foizdan 6,5 foizga pasayadi.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

AZIMOBOD AHOLISINING TURMUSH TARZI QANDAY OʻZGARDI?

Oltiariq tumanidagi “Azimobod” mahalla fuqarolar yigʻinida mezon havosini shimib, gʻarq pishgan kuzgi sabzi yigʻim-terimi avj pallaga chiqdi. Bu yerda gʻalladan boʻshagan aksariyat ekin maydonida takroriy ekin sifatida kuzgi sabzi yetishtirish, saqlash va sotishda oʻziga xos tajriba toʻplangan. Bir kilo sabzi ulgurji narxda 1500-2000 soʻmdan sotilmoqda. Oʻn sotix yerdan oʻrtacha 4 tonna hosil yigʻilishi hisobga olinsa, daromad choʻgʻini chamalash qiyin emas.



Mahsulotning asosiy qismi ichki bozordan tashqari Qirgʻiziston, Qozogʻiston va Rossiyaqa eksport qilinmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlariga talab ortib borayotgan bugungi kunda moʻl va sifatli hosil yetishtirish har qachongidan muhim.

— Mahallamizda bugʻdoydin boʻshagan 600 gektar maydonda sabzi yetishtiriladi, — deydi MFY raisi Abduqʻaffor Miraminov. — Sabzi qoʻl mehnatini kam talab qiladigan ekinlardan. Agrotexnik tadbirlarning asosiy qismi texnika yordamida bajariladi. Mahsulot sifatini yaxshilash, hosildorligini oshirishda

ajratib berildi, — deydi Shamsiddin Nuriddinov. — Birinchi mavsumning oʻzida 8 tonnaga yaqin hosil yetishtirdik. Bu oʻrta hisobda 16 million soʻm, degani. Ekinlar oʻrmini peshma-pesh shudgorlab, toʻqsonbosti usulida sabzavot ekdik. Bu erta koʻklamda oilamizga qoʻshimcha daromad olib keladi.

Bunday ish tajribasini mahalladagi har bir xonadonda kuzatish mumkin. Bu yerliklar qish mavsumida ham harakattan toʻxtamaydi. Ekinidan boʻshagan maydonlar, issiqxonalarda toʻqsonbosti usulida sarxil sabzavot, turli koʻkatlar parvarishlanayapti.

— Yil boshida mahallamizdagi aholining kambagʻallik va ishsizlik darajasi 20 foiz edi. Bugunga kelib, bu koʻrsatkich 5 foizga tushdi, — deydi hokim yordamchisi Islombek Mamatoyev. — Tadbirkorlik, tomoqraqchilik, chorvachilik, savdo va xizmat koʻrsatish tarmoqlarini qamrab olgan mikroloyihalar uchun umumiy qiymati 950 million soʻmlik imtiyozli kredit berildi. Shu kunga qadar ishsiz, ijtimoiy himoyaga muhtoj 60 ta oila kambagʻallikdan chiqarildi. Ularni doimiy daromadli qilish va kambagʻallikdan chiqarish maqsadida salohiyatli tadbirkorlar, oilalar ish tajribasini ommalashtirish, qiziqish va imkoniyatlari asosida kredit, subsidiyalari ajratish orqali bandligini taʼminlash, kasbga oʻqitish, yer ajratish chorasi koʻrilmogʻda. Hududda dorivor va eksportbop kavrak oʻsimligini yetishtirish yoʻliga qoʻyilmogʻda. Asosiy maqsad — mahallamizni kambagʻallik va ishsizlikdan xoli hududga aylantirish, aholi farovonligini oshirish.

Olti mingdan ortiq odam yashayotgan Azimobod aholining hayot tarzi haqida gap



Mahalladagi 900 ga yaqin xonadonning tomorqa xoʻjaligida sabzi urugʻi yetishtirish tajribasi ommalashtirish. Bir kilo sara urugʻ narxi 200-250 ming soʻm. Bu yerda tayyorlangan urugʻ unuvchanligi, yuqori hosildorligi bilan ajralib turadi.

Agrotarmoq

Bolaligimizda dalada, gʻoʻzalar orasida nogahon tarvuz yoki qovun palagini, mevasini koʻrib qolsak, noyob narsa topganday suyunib ketardik. Palak oʻsgan joyga belgi qoʻyib, mevasi pishishini kutardik. Axir faqat gʻoʻza va begona oʻtlar oʻsadigan egatlarda bunday neʼmatni uchratish gʻaroyib tuyulardi-da. Biroq oʻtgan yilgi paxta terimida soʻyib yeyilgan qovun yoki tarvuzning urugʻi shu yerga tushganini, kimdir bu yerga bir donagina urugʻ ekmasligini bilardik. Koʻpincha mittigina yongʻoq daraxtlariga ham duch kelardik. Qargʻalar qishga gʻamlash uchun ogʻzida olib ketayotgan yongʻoq mevasi tushib ketib, oʻsib chiqqanini aytardi kattalar. Niholni avaylab koʻchirib olib, tomoqqamizga ekardik.

Bugun esa paxta dalalarida poliz ekinlari, olma, olcha, yongʻoq kabi mevali daraxtlarni uchratish tabiiy hol. Ular dalalar chetini obod qilish bilan birga qoʻshimcha daromad ham keltiraypti. Prezidentimiz yaqindagina mevasabzavot mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilishni koʻpaytirish chora-tadbirlari yuzasidan oʻtkazgan videoselektor yigʻilishida bu masalaga alohida eʼtibor qaratildi. Jumladan, Qoraqalpogʻistonda dala chetidagi 2,1 ming, Fargʻonada 1,2 ming, Samarqandda 826, Buxoroda 784, Qashqadaryoda 247 gektar yer ishlatilayotganini aytdi.

Kimlardir gul tuvagidagi bir siqim tuproqdan hosil olib turganda, gektarlab dala chetlari oʻt bosib yotsa-ya? Shuning uchun ham bu davlatimiz rahbari nazoratidagi masalaga aylandi. Prezidentimizning 2023-yil 12-apreldagi “Qishloq xoʻjaligi korxonalari dala chetlaridagi yer maydonlarida mahsulot yetishtirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori esa bu borada muhim dasturlamal vazifasini oʻtamoqda.

Andijon tumanidagi “Patidinov sarvari” fermer xoʻjaligi dalasining ikki kilometrcha keladigan chetiga ekilgan “husayni”, “andijon qora” navli uzumlardan bu yil 4 tonna hosil olindi. Bir tonnasi ishsizlarga ulashilib, 3 tonnasi koʻtarasiga 5-6 ming soʻmdan bozorda sotildi.

— Jami 63 gektar yerimiz bor. Uzumdan tashqari ikki yil avval dala chetidagi 1 kilometrden ortiqroq joyga tut koʻchati ham ekkanmiz, — deydi fermer xoʻjaligi rahbari Ulugʻbek Shermuhamedov. — Belgilangan reja boʻyicha pilla yetishtirib beryapmiz. Bu yil oʻzimizdan ortgan barglardan yun-atrofdagi fermerlar ham foydalandi. 13 ishchimizga dala chetlarini 1-1,5 kilometrdan boʻlib berganmiz. Buning yaxshi tomoni — avvalgiday chiqindi uyumlari yoʻq. Mol-qoʻy kirib, payhon qilmaydi.

Hamma oʻz hududiga oʻzi javobgar. Tut, terak ekib foyda koʻrishyapti. Ularga qoʻshimcha daromad, dala maydonimizga esa obodlik kiraypti. Shu kunlarda 1,5 kilometr ariqni betonlayapmiz. Bu bilan artezian suvi besamar oqib ketishining oldi olinadi. Avval 1-1,5 soat kutiladigan suv endi 5-10 minutda kerakli yerga yetib boradi. Yaratganga shukr, mehnatimiz bilan el nazariga, kattalar eʼtiboriga tushyapmiz. Uzunchilik boʻyicha seminarlarga mezonlik qilganimizdan xursandmiz. Dala chetlari boʻsh turgan fermerlarga aytadigan gapimiz shuki, har bir qarich yerdan unumli foydalansak, oʻz-oʻzidan yurtimiz iqtisodiga, shu bilan birga, yashil makon yaratishga hissa qoʻshamiz. Qolaversa, endi dala chetini samarali ishlatgan fermerlarga tadbirkorlar reytingini hisoblashda qoʻshimcha ball beriladi. Yer soliqlarimizni ikki yilga boʻlib toʻlashimiz mumkin. Aslida, dala chetining oʻzi imkoniyat, bu imtiyozlar imkonimizni ikki barobar oshiradi.

Ha, fermer aytganidek, buyogʻiga dala chetidani unumli foydalanib, qoʻshimcha daromad olayotganlarga qator yengilliklar beriladi. Ayniqsa, “Oilaviy tadbirkorlik” dasturidagi 100 million soʻmgacha boʻlgan kreditlar soddalashtirilgan tartibda ajratilishi ayni muddao. Bu borada hech qanday oʻzlashtirish, tanish-bilishchilikka yoʻl qoʻyilmasligi quvonarli. Chunonchi, dala cheti hisobi, qanday mahsulot yetishtirilgani va qancha hosil olingani elektron portal orqali nazorat qilib boriladigan boʻldi.

Nazorat turi qanday boʻlmasin, shu tumandagi “Oqboy Asil” kabi fermer xoʻjaliklari reytingi albatta yuqori boʻladi. Boisi, bu yerda dala chetlari azaldan boʻsh qolgan emas. Qovogʻ, pomidor, bulgʻor qalampir kabi ekinlar ekiladi. Oʻtgan yili mahalliy uzum koʻchatlari ekilgan. Koʻchat ekishi ishlari ayni paytda ham davom



etyapti. Hosilga kirgan tutlar ipak qurtiga ozuqa boʻlsa, qalamcha qilinganlari ham koʻzga tashlanib qolgan.

Manzarali pavlovniya daraxtlari esa katta yoʻl boʻylariga koʻrk berib turibdi. Terak koʻchatlarining-ku son-sanogʻi yoʻq. Ular ham osmonga boʻy choʻzib, Ulugʻnor kanali qirgʻoqlarini obod qilgan. Yongʻoqlar hosilga kirgan. Avvaliga 40-50, yettinchi yildan boshlab 100-150 kilo hosil beradigan bu daraxt koni foyda. Maqola avvalida aytganimizdek, qargʻalar tashib ketganida ham yaxshigina daromad keltiradigan yongʻoqqa hamisha ehtiyoj bor. Shuning uchun fermer xoʻjaligida yongʻoq daraxтини yanada koʻpaytirish rejalashtirilgan.

— Tomchilatib sugʻorish tufayli hovuz atroflariga gilos, olcha va yana boshqa turdagi mevali daraxtlar oʻtqazyapmiz. Takroriy ekinlar ekamiz. Qariyb 20 yildan buyon

ishlayotganimiz uchun imkon qadar yerdan unumli foydalanishga harakat qilamiz. Texnika yetarli. Ustaxonalarimiz bor. 16 gektarga yaqin yerimizning yuqori qismini, dala chetidagi ariqlarni toʻliq betonlashtirdik, — deydi “Oqboy Asil” fermer xoʻjaligi rahbari Sadridin Ahmadaliyev.

Mazkur fermer xoʻjaligi ishsizlarga, ayniqsa, band boʻlmagan yoshlarga beminnat koʻmak berib, xalqning duosini olyapti. Jami 73 gektar yerining 8 gektari 15 sotixdan ishsiz yoshlarga ajratilgan. Agrotexnik tadbirlar fermer xoʻjaligi hisobidan bajarilaypti. Dehqonchilik ortidan toʻylar qilib, yul solayotganlar, mashina minayotganlar, ziyoratlarga borib kelayotganlarning yerga mehri yanada ortgan.

Munojat Rahimjonova,
jurnalist

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM OʻQISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



— Yashash joyimizga yaqin, suvga qulay 20 sotix unumdor ekin maydoni imtiyozli

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

Sherzod QORABOYEV
olgan suratlari.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Zamonaviy ta’lim tizimi faqatgina bilimli yoshlarni emas,
balki madaniyatli, vatanparvarlik hissi yuqori, jamiyat taraqqiyotiga o‘z
hissasini qo‘shadigan shaxslarni tarbiyalashi zarur.

2024-yil 13-dekabr, 253-son

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi tomonidan inklyuziv ta’lim joriy etilgan maktablarning rahbar xodimlari, o‘qituvchi va psixologlari uchun 72 soatlik maxsus malaka oshirish kursi yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur markaz tomonidan yil davomida o‘qituvchilar va ota-onalar uchun doimiy seminar-treninglar tashkil etib boriladi.



Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Bunday bolalar o‘z tengqurlari qatori ta’lim olishi, jamiyat hayotida to‘laqonli ishtirok etishi va munosib o‘rin topishi uchun imkoniyat yaratish insoniylikning eng oliy ko‘rinishi.

Inklyuziv ta’lim har jihatdan sog‘lom va alohida ta’limga ehtiyoji bor bolalar birgalikda o‘qishi, bilim olishi mumkin bo‘lgan ta’lim shaklidir. Bolalarga nisbatan har qanday kamalishlarga yo‘l qo‘ymaydigan, teng munosabatni ta’minlaydigan bu tizim alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun moslashtirilgan ularning o‘z tengqurlari qatori hayot kechirishi, jamiyat hayotida faol ishtirokiga zamin tayyorlaydi. Zero, ijtimoiy adolatli davlat qurishni oldiga maqsad qilib qo‘ygan vatanimizda ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, barcha uchun teng imkoniyatlar yaratish kun tartibidagi masala bo‘lib qolaveradi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanishi belgilab qo‘yilgan inklyuziv ta’lim sohasini rivojlantirish yo‘lida katta qadamlar qo‘yilishiga asos bo‘ldi. Bu bilan ta’lim bo‘yicha alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalar huquqi kafolatlandi.

— 2024-yil yanvarga qadar ana shunday bolalarni davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga yo‘llash bo‘yicha tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya hamda ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internatlarga yo‘llash bo‘yicha psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar faoliyat yuritgan, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi bosh mutaxassisi Farhod Kamilov. — Ularning maqsadi va vazifalari bir xil bo‘lib, amalda bir-birining faoliyatini takrorlagan. Shuningdek, komissiyalar faoliyatini tashkil etishda fuqarolar tomonidan byurokratiya, sansolarlik va boshqa ma’muriy to‘siqlarga duch kelish holatlari mavjud bo‘lgan. Bu esa alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ota-onalari uchun ortiqcha ovoragarchiliklarni keltirib chiqargan.

Shu bilan birga, nogironlikning og‘ir turiga ega va uyda yotib qolgan bolalar jamiyatdan ajralib qolgan, faqatgina ota-onasi yoki qonuniy vakillar qaramog‘ida qolib ketgan. Ular uchun hech qanday parvarishlash xizmatlari ko‘rsatilmagan. Bu esa ularning ota-onasi yoki o‘rni bosuvchi shaxslarda jismoniy va psixologik jihatdan charchashga olib kelgan hamda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish imkoniyati past bo‘lgan.

2024-yil 25-yanvarda Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim olishlarini

Ta’lim odimlari

“TO‘SIQSIZ MUHIT”

tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Qaror bilan komissiya faoliyatini qayta ko‘rib chiqish va bolalarning komissiyaga murojaat etish jarayonini raqamlashtirish orqali ota-onalar yoki ularning o‘rni bosuvchi shaxslarga qulayliklar yaratildi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim-tarbiya olishini takomillashtirish maqsadida Ijtimoiy himoya milliy agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari huzurida yagona psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar faoliyati yo‘lga



qo‘yildi. 2024-yil 1-avgustdan komissiya tomonidan hujjatlar qabul qilingandan so‘ng komissiya ko‘rigi o‘tkazilishidan kamida 3 kun oldin ota-onaga yoki qonuniy vakillarga aloqa vositalari, shu jumladan, SMS xabarnoma orqali bolani ko‘rikdan o‘tkazish sanasi, vaqti va joyi ko‘rsatilgan xabar yuboriladi. Bola ko‘rikdan o‘tkazilgandan keyin komissiya xulosasini ota-onalar elektron shaklda oladi.

— Bugungi kunda uzoq muddat davolanishga muhtoj 13 ming 300 o‘quvchi uyda yakkala tartibda, 20 ming 300 dan ortig‘i nogironligi bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda, shuningdek, alohida ta’lim ehtiyoji bor 23 mingga yaqin o‘quvchi umumta’lim maktablarida ta’lim olib kelmoqda, — deydi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bo‘lim boshlig‘i Ro‘ziybek To‘rayev. — Xorijiy tajribadan kelib chiqib, 2025-yilning 1-yanvaridan boshlab umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ham inklyuziv ta’lim guruhlarini tashkil etish, inklyuziv ta’lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlarni tayyorlashga xorijiy ekspertlarni jalb etish, inklyuziv ta’limda o‘qitish usullarini takomillashtirish kabi maqsadlar belgilangan.

Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 298-umumta’lim maktabi UNICEF hamoliylik mablag‘lari hisobidan qayta jihozlanib, maktabda nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun “to‘siqsiz muhit” yaratildi.



YOXUD BARCHA UCHUN TENG IMKONIYAT

— Farzandim Abubakrga ikki tomonlama sensor karlik tashxisi qo‘yilgan, — deydi Munira Karimova. — Kasallik to‘rtinchi bosqichda ekani, eshitishi zaifligi tufayli o‘g‘lim boshqa tengqurlari qatori maktabga chiqqa olmasdi. Ammo 298-maktabda bolalarning inklyuziv ta’lim olishiga shart-sharoit yaratilganini eshitib, juda xursand bo‘ldim. Darhol farzandimni olib keldim. Hozir o‘g‘lim 1-sinfda, sog‘lom tengdoshlari bilan birga bilim olyapti. O‘qish-yozishni o‘rgandi, she’rlar yodlayapti. O‘qituvchisiga yaqindan yordam berishga harakat qilyapmiz. Darslarni birga tayyorlaymiz. Qolaversa, sinfdosh do‘stlari har jihatdan ko‘mak beryapti. Maktabdagi iliq muhit, yaxshi munosabat bolamning tabiatidagi ijobiy o‘zgarishlarga ham turtki bermoqda.

Zuhrabonu Murodjonova o‘zi mustaqil yura

olmaydi. Ota-onasi qizining sog‘lom bolalar o‘qiydigan maktabda bilim olishini juda qattiq istadi. Uni ilk bor 298-maktabga olib kelishganida qizcha ancha yotsiradi. Tengdoshlarining oldida o‘zini noqulay his qilib, tortinib yurdi. Bolalardagi samimiyat, bir-biriga g‘amxo‘rlilik, mehribonlik Zuhrabonudagi ikkilanishlarga barham berdi. U sog‘lom tengdoshlari bilan birga o‘ynaydigan, dars qiladigan bo‘ldi. Tirishqoqlik bilan darslarni o‘zlashtira boshladi.

— Qizim maktabga katta ishtiyoq bilan keladi, biror kun ham darslarni qoldirishni istamaydi, — deydi Zuhrabonuning onasi Zilola Muhammedova. — Kayfiyati juda yaxshi. O‘roqlari bilan birga o‘qish, yozishga harakat qiladi. Kitobdagi rasmlarni kuzatadi, harflarni va tovushlarni talaffuz qiladi. Berilgan vazifalarni sinfdoshlari bilan teng bajarishga intiladi.



— Sinfda imkoniyati cheklangan uch bola sog‘lom tengdoshlari bilan birga bilim oladi, — deydi 298-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi Muborak Azizova. — Bolalar o‘rtasida do‘stona munosabatni tashkil qilganmiz. Ular bir-biriga mehribon, e’tibor va yordamini ayamaydi. Zuhrabonu tinch va ehtiyotkor o‘quvchi, darsda ko‘proq tinglovchi, zarurat tug‘ilganida o‘z fikrini bildiradi. O‘zining va boshqalarning fikrlariga hurmat bilan yondashadi. Muhokama qilindigan masalalarda o‘ylab turib ishtirok etishga harakat qiladi.

Maktabda xavfsiz va inklyuziv ta’lim muhiti yaratilgan. Maqsad — jismoniy, intellektual,



“Inklyuziv ta’lim” loyihasi doirasida inklyuziv ta’lim joriy etilgan maktablarning maxsus pedagoglari uchun xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda o‘quv-seminar va treninglar tashkil etilishi, shuningdek, inklyuziv ta’lim maktablarini zarur jihozlar bilan ta’minlash rejalashtirilgan.

madaniy, etnik, til va boshqa xususiyatlaridan qat’i nazar, bolalarni to‘liq ijtimoiy hayotga kiritish, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga ko‘maklashish.

Inklyuziv ta’limni joriy etish borasida xalqaro tashkilotlar hamda AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Finlyandiya kabi rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik qilinmoqda.

UNICEF bilan amalga oshirib kelinayotgan loyiha doirasida maktablar va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nogironligi bor-yo‘qligidan qat’i nazar, barcha o‘quvchilar uchun to‘siqsiz ta’lim muhitini yaratishga qaratilgan ishlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Zamonaviy inklyuziv ta’lim va tarbiya modellari — yangi standartlar, talablar va amaliyotlarni joriy etish uchun tajriba loyihalarini yaratish orqali inklyuziv ta’lim sifatini yuqori darajaga ko‘tarish nazarda tutilyapti.

Inklyuziv ta’lim tizimini qo‘llab-quvvatlash maqsadida beshta asosiy yo‘nalish belgilab olingan. Bular: inklyuziv maktablar va maktabgacha ta’lim modellari yaratish, bolalar uchun to‘siqsiz o‘quv muhitini yaratishda yordamchi texnologiyalar va o‘quv materiallarini tayyorlash, inklyuziv ta’lim ishtirokchilarining bilim va salohiyatini oshirish, jamoatchilik orasida keng targ‘ibot qilish.

Loyiha natijasida 2027-yil oxiriga kelib, O‘zbekistonning barcha hududlaridagi model maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlari inklyuziv ta’lim bo‘yicha ilg‘or tajriba markazlariga aylanishi, boshqa maktablar mutaxassislarni ham o‘qitish va yo‘naltirishda muhim rol o‘ynashi belgilangan.

“Zamin” xalqaro xayriya fondining “Eshitishni xohlayman” loyihasi doirasida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarning 5206 o‘quvchisi chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi va 4130 nafari zamonaviy eshitish apparatlari bilan bepul ta’minlandi. 179 nafarida bepul ko‘xlear implant operatsiya o‘tkazildi. Natijada eshitish qobiliyati yaxshilangan 250 dan ortiq bola inklyuziv ta’limga yo‘naltirildi.

“Inklyuziv ta’lim” loyihasi doirasida inklyuziv ta’lim joriy etilgan maktablarning maxsus pedagoglari uchun xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda o‘quv-seminar va treninglar tashkil etilishi, shuningdek, inklyuziv ta’lim maktablarini zarur jihozlar bilan ta’minlash rejalashtirilgan.

Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) bilan birgalikda “2021–2024-yillarda O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish” loyihasi doirasida 24 mentor tayyorlanib, inklyuziv ta’lim joriy etilgan maktablarning boshlang‘ich sinf va maxsus pedagoglari, psixologlari, rahbarlaridan 285 nafari uchun o‘quv seminarlar hamda treninglar o‘tkazildi. O‘zaro tajriba almashish maqsadida o‘zbekistonlik mutaxassislar Yaponiyada malaka oshirib keldi.

— Inklyuziv ta’limni amalga oshirish va uni rivojlantirib borish uchun, albatta,

uning ishtirokchilari bo‘lgan o‘qituvchi va o‘quvchilarni, ota-onalarni va butun jamiyatni shunga tayyorlash talab etiladi, — deydi Ro‘ziybek To‘rayev. — Buning uchun vazirlik tomonidan inklyuziv ta’limda faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlar uchun 27 nomdagi qo‘llanma va dasturlar hamda ota-onalar uchun 5 nomdagi metodik tavsiya ishlab chiqildi.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi tomonidan inklyuziv ta’lim joriy etilgan maktablarning rahbar xodimlari, o‘qituvchi va psixologlari uchun 72 soatlik maxsus malaka oshirish kursi yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur markaz tomonidan yil davomida o‘qituvchilar va ota-onalar uchun doimiy seminar-treninglar tashkil etib boriladi. Shuningdek, pedagogika bo‘yicha kadrlar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalarining maxsus ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun 2-kursdan boshlab “Inklyuziv va gospital ta’lim” o‘quv modullari o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan. Bu bilan talabalar ta’lim muassasasini bitirayotganda inklyuziv ta’lim bilan shug‘ullanish ko‘nikmasiga ega bo‘lib chiqadi.

Bundan tashqari, Abdulla Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodiklarga o‘rgatish milliy-tadqiqot institutida tashkil etiladigan malaka oshirish kurslari davomida umumta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan rahbar va pedagog xodimlar inklyuziv ta’lim yo‘nalishida doimiy malakasini oshirib boradi.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Nuqtayi nazar



Azizbek HASANOV,
pedagogika fanlari bo‘yicha
falsafa doktori, dotsent

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisidagi nutqi yurtimiz rivojlanishining istiqbolli yo‘nalishlarini belgilab berishda muhim o‘rin tutadi. Unda ta’lim tizimini takomillashtirishga oid ko‘tarilgan masalalar ham o‘z mazmuni va mohiyatiga ko‘ra keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etadi.

YORUG‘ KELAJAKNI BILIMLI VA SALOHIYATLI YOSHLAR BARPO ETADI

Bugungi globalashgan dunyoda har bir jamiyatning kelajagi yoshlarga, xususan, bolalarga bog‘liq. Maktabgacha ta’lim davri bolaning shaxs sifatida shakllanishi va intellektual rivojlanishi uchun muhim bosqich hisoblanadi. Prezidentimiz o‘z nutqida maktabgacha ta’lim tashkiloti qamrovini 80 foizga yetkazishni hukumat uchun ustuvor vazifa sifatida belgiladi. Bu ko‘rsatkichni ta’minlash uchun 2025-yilda 252 ta yangi maktabgacha ta’lim tashkiloti qurilishi va 174 tasi ta’minlanishi rejalashtirilgan.

Yangi maktabgacha ta’lim tashkilotlari barpo etilishi nafaqat bolalarning ta’limga bo‘lgan talabini qondiradi, balki shu orqali ijtimoiy farovonlikni yanada oshirishga erishiladi. Ayniqsa, qishloq hududlaridagi maktabgacha ta’lim tashkiloti va maktablar qamrovi oshishi orqali shahar va qishloq o‘rtasidagi ijtimoiy nomutanosiblik tobor qisqarib borayotganiga barchamiz guvohim.

Kelajak avlodni yetuk qilib tarbiyalashda maktab ta’limining o‘rni beqiyos. Albatta, bu sohada xususiy maktablar qamrovi kengayishi erkin raqobat muhitini shakllantiradi. Shu

maqsadda davlatimiz rahbari tadbirkorlarga maktab qurish uchun 20 milliard so‘mgacha imtiyozli kredit berilishini, bunda kredit stavkasining 13,5 foizdan oshgan qismi byudjetdan qoplanishini bildirdi.

Ta’limga kiritilayotgan sarmoya mamlakatning ijtimoiy barqarorligi va siyosiy taraqqiyoti uchun poydevor yaratadi. Bu jahon tajribasida ham allaqachon isbotlangan. Zamonaviy ta’lim tizimi faqatgina bilimli yoshlarni emas, balki madaniyatli, vatanparvarlik hissi yuqori, jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shadigan shaxslarni tarbiyalashi zarur. Zero, bugungi dunyoning talabi ham shu.

Ayni islohotlarga barchamiz birdek hissa qo‘shishimiz lozim. Ayniqsa, ta’lim sohasi xodimlari bu borada asosiy drayver hisoblanadi. Zamon kun sayin rivojlanmoqda, demak, shunga muvofiq ravishda mamlakatimizda ustoz-murabbiylar ham bilimini, tajriba va mahoratini yangilab bormog‘i zarur. Bugun o‘n yil avvalgi metodlar asosida dars o‘tib, ta’lim berish o‘zini oqlamaydi. Ayni damda jahondagi

ilg‘or ta’lim tizimlari jarayonga sun‘iy intellekt imkoniyatlarini keng integratsiya qilish ustida bosh qotirmoqda. Shubhasiz, keyingi o‘n yillikda ular bu borada sezilarli natijalarni qayd eta boshlaydi.

O‘zbekiston bu borada ortda qolmasligi lozim. Ayniqsa, sun‘iy intellektni ta’lim jarayoniga joriy qilish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish hamda o‘qituvchilar va murabbiylar uchun zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish ustuvor vazifalardan biri bo‘lishi kerak. Bugungi kunda o‘quvchilar uchun fanlarni yodlash emas, balki ularni hayotda qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirish muhim. Bunda innovatsion metodika va yangi texnologiyalar katta yordam beradi.

Zamonaviy dunyoda mamlakatning kuchi va zaif jihatlari yoshlar, ularning bilim va malakasi orqali namoyon bo‘ladi. Ta’lim islohotlari jarayonida hozirdanoq kelajak avlod uchun mustahkam poydevor qo‘ysak, kelgusi rivojlanishning muvaffaqiyatli bo‘lishi yanada kafolatlanadi. Zero, yorqin kelajakni bilimli va salohiyatli yoshlar barpo etadi.



ULAR O'Z HAYOTINI

Toshkentlik Jasur Jumayev Qonunchilik palatasi deputati bo'ldi. Shahrisabzlik Lola opa Ro'ziyeva esa buni eshitib juda quvondi. Vaholanki, yangi deputat Lola opaga tanish yoki qarindosh emas. Gap shundaki, Lola opa ham Jasur Jumayev kabi jismoniy imkoniyati cheklanganiga qaramay, hunarmandlik bilan shug'ullanadi.

bilandir band bo'lishi kerakligini o'ylandi. Internetdan turli taqinchoqlar, sumkalar yasashni, quroqchilik sirlarini o'rgandi. Yostiqlar, g'iloflar tikdi, panno va kartinalar tayyorladi. Milliy quroqlarni tiklash ustida izlandi. Yarim tunda ham xayoliga birorta g'oya kelib qolsa, chiroqni yoqdi-yu, qog'ozga yozib qo'yaverdi. Tasavvurida jonlangan, internetda ko'zi tushgan yangi gullardan nusxa oldi. Ertasiga esa bisotidagi bor matolardan quroq tika boshladi.

— Salgina qo'llov bo'lsa, ustaxona qilib, shogirdlarni ko'paytirardim. Chunki uydagilar bir o'zim katta buyurtmalarni tikishimga



ko'nmaydi. Oilamizga, sovg'a-salom uchun bir narsalar qilishimga esa yo'q deyishmaydi. Negaki o'zim sevgan mashg'ulot bilan band bo'lsam, sog'lig'im yaxshilanishini bilishadida. Shuning uchun quroqchilikka qiziqqan ayollar, qizlar bilan milliy quroqchilikni yana qayta tiklashga hissa qo'shgim, rivojlanitirgim keladi. Darvoqe, yaqinda "Hunarmand" uyushmasiga a'zo bo'ldim. Ko'rgazmalarga qatnashayapman. Quroqchilikning yangi usullarini o'rganishim uchun Qirg'izistonga yuboramiz deyishganida, boshim ko'kka yetdi. Hunarning ortidan qayerga borish kerak bo'lsa, boraverman, — deydi Lolaxon opa kulib.

— Davlatimiz rahbarining "Tariximizda ilk bor nogironligi bo'lgan fuqaromiz Qonunchilik palatasi deputati etib saylandi. Bu parlamentimizni tom ma'noda inklyuziv organga aylantirib, ushbu qatlam manfaatlarini yanada keng ifoda etish imkonini beradi, desak to'g'ri bo'ladi", degan gaplaridan so'ng behad quvondim, — deydi Lola opa. — Chunki bu orqali nogironligi bo'lgan biz kabi shaxslarga yanada keng imkoniyatlar yaratiladi. Axir yangi deputatimiz Jasur Jumayev hunarning mashaqqatini ham, nogiron kishining tadbirkorlik qilishi qanchalik murakkab ekanini ham yaxshi biladi.

Prezidentimizning 2023-yil 12-iyundagi "Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida hunarmandlikning yo'qolib ketayotgan turlarini saqlab qolish va kelgusi avlodlarga yetkazish "Hunarmand" uyushmasining ustuvor vazifasi etib belgilanishi ko'rsatilgan. Shuningdek, hujjat bilan hunarmandlik faoliyati yo'nalishlari 34 tadan 43 taga ko'paytirildi. Ya'ni xattotlik, qadimiy qo'lyozmalarni restavratsiya qilish, ot anjomlari, quroqchilik, makrame va qo'lda to'qilgan buyumlar tayyorlash kabilar hunarmandlik deya e'tirof etildi. Bundan rihlangan quroq tikuvchi xotin-qizlar joylarda bu hunarni rivojlantirishga yanada jiddiy kirishdi.

Maqolamiz qahramoni Lola opa avval quroqchi emasdi. 25-30 yil davomida tikuv sexlari ochib, ayollar va erkaklar kostyumlari, paltolarini tikar, o'z sohasida yetakchi edi. 2010-yilda kuchli insult o'tkazgach, opa bir joyda yotib qoldi. Doktorlar "Olib ketaveringlar", deganida ham oilasidagilar uning hayotga qaytishlarini umidvor ko'laverdi. 2 xonali uy, tikuv mashinalarining barchasi opaning poytaxtda davolanishi uchun sotib yuborildi.

Ikki yilda oyoqqa turgan Lola opa endi mashinaga o'tira olmasdi. O'ng qo'li va oyoq'i batamom tuzalib ketmadi. Shunda ham nima

O'ZGARTIRA OLDI



Opa hokimlikka borib, "Menga ish beringlar", deganida u yerdagilar hayratini yashirmaydi. To'rt munchasi sog' ayrimglarga o'xshab pul so'rab kelmagani uchun unga rahmat aytganlar ham bo'ldi.

"Nima qilay, o'g'linga yordam bergim keladi-da, biro'zi ishlasa, tag'in kredit to'laydi", deydi Lola opa. O'g'il esa "Hunarmand" uyushmasidan qayerga chaqirishsa, albatta, boring, ona, ko'rgazmalarda qatnashib, xursand bo'lib yuring. Nima kerak bo'lsa, menga aytg'n", deydi. Chunonchi, u ham endi onasining shogirdlarga ish o'rgatib, milliy hunarlarimizni saqlab qolishga hissa qo'shishidan baxtiyor.

2023-yilning 25-dekabr kuni davlatimiz rahbarining "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyathunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Respublikamiz hududlarida mavjud nomoddiy-madaniy meroslarni chuqur o'rganishga kirishgan mazkur institut madaniy merosimizni saqlab kelayotgan hunarmandlar bilan bahamjihat faoliyat yuritmoqda.

— Bolalikdan buvimning bichib-tikish ishlarni qiziqish bilan kuzatardim, — deydi ulardan biri jizzaxlik Gulruh Yodgorova. — Ayniqsa, qo'l mehnatini yaxshi ko'raman. Quroqchilik bilan 2015-yildan buyon shug'ullanaman. Avvaliga uch kishi uyda

ish boshlaganmiz. Tikkanlarimiz yon-atrofdagilarga ma'qul bo'lgan. Buyurtmalar kela boshlagach, ijtimoiy tarmoqda guruh ochib, ishlarnimzni kengroq namoyish qilganmiz. Boshqa viloyatlardan ham qiziquvchilar ko'payib, ishimiz yurishib ketdi. Bundan xabar topgan hokimlik mutasaddilari kichikroq bir binoni ijaraga olib berdi. U yerda besh kishi ishlay boshladik. Asta-sekin ish so'rab keluvchilar, o'rganuvchilar ko'paydi. Shundan so'ng tuman soliq idorasi binosida bo'sh turgan 2 ta xona biz uchun bepul ajratib berildi. Hozir 500 dan ziyod shogird, 60 ga yaqin ishchimiz bor. Ayollarni ish bilan ta'minlash, kambag'allikdan chiqarishga hissa qo'shayotganimizdan xursandmiz. Kasanachilikka keng yo'l berilgani esa boquvchisini yo'qotgan, nogiron, og'ir sharoitdagi ayollarni ham band qilishda muhim omil bo'ldi. Tayyor bichilgan matolarni beramiz, uyda o'tirgan holda tikib berishadi. To'g'ri, keyingi paytlarda quroqchilik qayta jonlanyapti, har bir hududda o'ziga xoslik bor. Biroq sifat jihatidan ustunlik xaridorgirlarni ta'minlash. Shuning uchun ish sifatiga jiddiy e'tibor beramiz. Eski va zamonaviy usuldagi quroqni birlashtirib, milliy ramzlarni ham singdirgan holda mayda qirqimlardan 170 xildagi mahsulot tayyorlayapmiz. Zominda eski quroqchilik uslublari ko'proq saqlanib qolgan. Quroqchilik san'atiga qiziqadiganlar Zomin quroqlari juda mayda, nafis uslubda tikilishini yaxshi biladi.

Buni qarangi, quroq buyumlarimizga chet davlatlarda ham qiziqish katta

ekan. Hunarmandning aytishicha, Jizzax viloyatining Paxtakor tumanida tayyorlanayotgan qo'l mehnati namunalari 20 ta davlatga eksport qilinyapti. AQSH, Germaniya, Rossiya, Turkiya, Eron, Hindiston kabi mamlakatlardan buyurtmalar ko'pligi quvonarli.

Buyuk allomalarimizdan biri "Odamlarning eng baxtlisi uning qaramog'ida odamlari baxtli bo'lganlaridir", degan edi. Gulruh Yodgorova kabilar ham shu ma'noda baxtli. Zotan, uning oldiga maktab yoshidagi qizlardan tortib, o'rta yoshli ayollaru kayvoni onaxonlar hunar o'rganish uchun kelyapti. U bilan ishlayotganlarning esa ro'zg'origa baraka kiriyapti. Masalan, surxondaryolik talaba Muhayyo Ulashova mohir tikuvchi. U tikkan quroqlarni ko'rganlar: "Bizni ham navbatga yozib qo'ying", deydi. Shunga yarasha daromadi ham bor. Bir kelinning sepi uchun kamida 800-900 ming so'mlik buyurtma tikiladi. Talaba uchun bu yaxshigina mablag'.

— Pandemiya davlati kashatichilik va quroqchilikni o'rganib oldim. Endi bu ishim qo'l kelyapti. O'shanda "Hunarmand" uyushmasi bilan hamkorlikda mahallada o'quv kurslari tashkil qilingan edi. Qumt bilan o'rganishga harakat qildim. Asosan, qorag'alpoq milliy quroqlarini tikaman. Oson emas, ayniqsa, shakl chiqarib, qirqib olish ko'p vaqt talab qiladi. Tayyor bo'lgach esa qo'l mehnatimga qarab charchoqlarim chiqib ketadi, — deydi Muhayyo.

Talaba qiz tikkan quroq ko'rpachalarni ko'rib, rosti, bizning ham charchog'imiz chiqqanday bo'ldi. Ayniqsa, shaxmat taxtasini eslatadigan naqshlar yostiq va ko'rpachalarda juda jozibador ko'rinar ekan.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Munajat MO'MINOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Mulohaza

UNUTILAYOTGAN QADRIYAT

Milliy o'zligini anglagan har qanday odam yillar davomida o'zini oqlagan qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni e'zozlashi, bardavomligiga hissa qo'sha olishi, yangi avlod ongiga ham singdirib borishi zarur. Bu bilan, avvalo, oila va jamiyatning ma'naviy muhiti barqarorligi ta'minlanadi. Ma'naviy muhit barqarorligi esa barcha sohalaridagi taraqqiyotga bevosita ta'sir o'tkazadi.

Institutni bitirgan yigitga ota-onasi "O'qiding, ishli bo'lading, endi kelin tanlash itxiyorini o'zingga beramiz", dedi. Balki ko'nglida kimdir bordir deb o'yladi ular. Chunki kelin haqida so'z ochilsa, yigit parvo ham qilib qo'ymadi-da.

Yigitning ko'z oldiga dam olish chog'i hamma o'yin-kulgi bilan band bo'lib turganida tolnig soyasida o'tirib ro'molcha to'qiyotgan qiz kelavardi. Qo'shni mahalladan bo'lgani uchun bir-ikkisi salom-alik ham qilishgan. Qizning istarasi issiq, odobli, oilasini, urug'-aymog'ini yigit orqavorotdan biladi. Ota-onasiga ham ma'qul kelsa kerak.

Ertasi kuni yigit yana dalaga bordi. Qiz g'ozalarni yovvoyi o'tdan tozalab yuribdi. Yigitni ko'rib, bir oz o'zini yo'qotganday

bo'ldi. Axir kelishgan, o'qimishli, avval ham uchratganida yuragi jiz etgandi. Salom-alikdan so'ng yigit surishtirib bildi: qiz institutga hujjat topshirgan, biroq omadi chopmagan. U xijolat bilan baribir o'qib, muallima bo'lishini aytdi.

— Menga bitta ro'molcha sovg'a qila olmasizmi? — deya zimdan nazar tashlab so'radi yigit. — Sal avval ro'molcha to'qiyotganingizni ko'rgandim. Kimga atalgandi u?

Dabdurdustdan berilgan savoldan qiz biroz esankirab qoldi. "Hozir yonimda yo'q edi-da", dedi ma'noli ko'zlarini olib qochib.

— Ha, mayli, keyingi gal ro'molchangizni olgani kelaman, — deya qizni o'ng'aysiz ahvoldan chiqardi yigit.

Ertasi kuni qiz yigitga ko'nglidagi ko'rinmas tuyg'ularini jo aylagan ro'molchasini sovg'a qildi. Bu ro'molcha ikki yoshning taqdirini uzilmas janjirdek bir umrga bog'lagandi...

— Mana shu voqeaga ham bu yil rosa ellik yil bo'libdi, — dedi otaxon o'siq qoshlari ostidan qarab. — O'shanda ayolim bergan ro'molchadagi bejirim naqshlarda sabrni, mehni, did va farosatni his qilgandim. Sezgim aldamagandi. Ikki o'g'il, to'rt qizni ulg'aytirib, elga qo'shdi. Ular ham o'qimishli, oilasiga sadoqatli. Ayolim o'sha ro'molchaga bitgan mehni mendan hech qachon darig' tutmadi. Fahm-u farosati bilan ota-onam, yaqinlarim ko'nglidan joy oldi. Oliy ma'lumotli bo'lib, maktabda ham o'rinni topdi. Hayot qiyinchiliklarini sabr bilan yengdi. Hozir men yetmish besh, ayolim yetmish yoshni ortda qoldirdik. Ishonasizmi, taqdirimizni uzilmas rishadek bog'lagan o'sha ro'molchani hozirgacha saqlayman. Ro'molcha hikoyasini farzandlarim, nabiralaringma ham so'zlab bergandim. "Bunaqa ro'molcha to'qiydigan qizlar hozir yo'q-da, bobo", deydi ular. Mana shu joyda tilim lol bo'lib qoladi. Axir unashiriladigan yigitga qiz qo'li bilan to'qigan, tikkan ro'molcha, qiyiq sovg'a qililmasmidi? Ular shunchaki buyum emas. Buni o'z hayotimda sinaganim uchun aytapman. Afsus, bugun qizlarning ichki olamini namoyon etadigan bunday buyumlar to'qish an'anasi unutib yuborildi. Bu eng go'zal qadriyatimizga aylangan odat edi. Nazarimda, hozirgi qizlarning bunday ishlarga toqati ham, ishtiyoqi ham yo'q.

Otaning kuyinganicha bor. Shu o'rinda o'sha yigitning sinchkovligi, didiga ham tasanno aytish kerak. U qizning chiroyi, otasining boyligiga uchmadi. Didi, mehri, sabrini sinadi. Mana, keksayib, umr daftarini varaqlab, kutganidan ham ziyoda mazmun topa olyapti. Eng asosiysi, bu qadriyat, bu an'ana farzandlarida ham davom etmoqda.

Ushbu hikoya chuqur mulohazaga chorlaydi. Nima uchun bugun oilalar o'ta mo'rt, hatto farzandlari bo'la turib ham arzimagan bahona bilan turmush rishtasi uzilib ket-



eng muhim tosh-tarozisi hamon oldi-berdidagi siylovu to'yillarda dabdaba bo'lib qolmoqda.

Bir oilani bilaman. Eri vafotidan keyin ayol izmidan chiqmaydigan yolg'iz o'g'lini "unisi bo'lmasa, bunisi" qabilida ikki emas, uch emas, rosaolti marta uylantirdi. Oilaning boyligiga, yigitning ko'rinishiga uchganlar surishtirib o'tirmay, quda tutinaverdi. Bir-ikkisi yil o'tib, qizi qaytib kelaverdi. O'z fikriga o'ta bo'lmagan yigitning hozir besh xotindan olti farzandi bor.

Yaqinda shu ayolni uchratib qoldim, rangida rang yo'q.

— Oxirgi paytda yig'loqi bo'lib qoldim, — dedi u salomatligidan shikoyat qilib, ko'ziga yosh olarkan. — Qon bosimim tez-tez ko'tarilib ketyapti...

Qarashidan bosib o'tgan hayot yo'lidan, yolg'izginasining turmushiga noo'r'in daxl qilganidan afsus-nadomat sezilib turibdi. Aftidan, "Mendan keyin o'g'limning turmushi nima bo'larkan, mehri bera olmagani farzandlarining qiz bini unga asqotarkan?" degan o'y uning ich-etini kemiryapti.

Mana xulosa chiqarish uchun ikki taqdir. Inson dunyoga bir marta keladi. Yaratganning irodasi, davlatimiz qonuni bilan barpo bo'layotgan, inson atalmish buyuk mo'jiza dunyoga kelayotgan oiladek muqaddas qo'rg'onga bepisand yondashuv ortidan hech kim u dunyoga gunohi azimni ortmoqlab ketmasin. Axir ajralishlar ortidan qancha-qancha go'daklar asosan ota, juda kam holatlarda ona mehridan benasib qolmoqda. Har qancha boyluk yoki arzimagan alimant ularning qalbidagi bo'shliqni to'ldira olmaydi.

Har bir oilaning kelajagi uning mustahkamligida, xalqona aytganda, unib o'sishida, tup qo'yib, palak yozishida. Bu, albatta, kelin olib, qiz uzatishga azaliy e'zozlanayotgan qadriyatlar va odatlarimiz asosida yondashishni taqozo etadi.

Xadichaxon KARIMOVA,
jurnalist

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Kolompak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 4404.

39932 nusxada bosildi.
Ofset usulida bosildi. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolompak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060,
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Lutfulla Suvonov
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 21:00 Topshirildi — 23:30